

XII. DEMOGRAFIYA

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning 1- aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 4 049,9 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 18,6 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni, ming kishi

(2022- yil 1- aprel holatiga)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat bo'yicha	4 049,9	2 037,9	2012,0	1489,9	2560,0
Samarqand sh.	564,5	273,5	290,9	564,5	x
Kattaqo'rg'on sh.	92,6	46,3	46,3	92,6	x
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	165,9	83,8	82,1	64,1	101,8
Bulung'ur	194,3	99,1	95,2	43,0	151,3
Jomboy	181,3	91,4	89,9	40,0	141,3
Ishtixon	265,5	133,6	131,9	71,8	193,8
Kattaqo'rg'on	283,3	143,8	139,5	53,5	229,8
Qo'shrabot	136,9	69,8	67,1	12,6	124,3
Payariq	261,8	135,6	126,3	74,5	187,3
Pastdarg'om	369,0	185,4	183,6	95,0	273,9
Paxtachi	148,4	73,8	74,6	28,8	119,6
Samarqand	262,7	132,7	130,0	16,2	246,5
Narpay	220,0	111,8	108,2	65,2	154,8
Nurobod	156,8	79,0	77,8	17,7	139,0
Toyloq	211,6	106,7	104,9	25,9	185,7
Urgut	535,4	271,6	263,8	224,5	310,9

Aholining tabiiy harakati


(yanvar-mart oylarida)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2021- y.	2022- y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2021- y.	2022- y. ¹⁾
Tug'ilganlar	21 428	24 265	2 837	22	24,4
O'lim	4 251	4 484	233	4,4	4,5
Nikohlar	6 770	6 342	428	6,9	6,4
Ajralishlar	920	1 269	349	0,9	1,3

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-mart oylarida 24 265 bola tug'ilgan va 2021- yilning shu davriga (21 428 bola tug'ilgan) nisbatan 2 837 taga ko'paydi, tug'ilish koeffitsienti esa 24,4 promilleni tashkil qildi (2021- yil yanvar-martida 22,0 promille).

Tug'ilish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Qo'shrabot (29,0 dan 32,8 promillega), Ishtixon (27,7 dan 30,7 promillega), Bulung'ur (25,0 dan 27,6 promillega), Toyloq (27,7 dan 30,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti



Vafot etish darajasi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni 4 484 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (4 251 kishi) nisbatan 233 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsienti esa 4,5 promilleni tashkil qildi (2021- yilning shu davrida 4,4 promille).

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2022- yil yanvar-mart)




Vafot etganlar sonining ko‘payishi Qo‘shrabot (4,6 dan 5,8 promillega), Paxtachi (4,6 dan 5,6 promillega), Pastdarg‘om (3,8 dan 4,8 promillega) va Jomboy (4,2 dan 5,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro‘yxatga olingan jami vafot etganlar 63,2 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 7,9 foizi - o‘sma kasalliklari, 4,9 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 5,0 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 6,0 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 0,8 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 12,2 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Vafot etganlar umumiy sonining tarkibiy tuzulishi, % da


(2022- yil yanvar-mart)



Nikoh. 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 6 342 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,4 promilleni tashkil etdi.


Nikoh tuzish koeffitsientining sezilarli darajada ko‘payishi Urgut (7,5 dan 8,1 promillega), Ishtixon (6,6 dan 6,9 promillega), Paxtachi (7,0 dan 7,3 promillega), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-mart)




Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlarida 1 269 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo‘lib, 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-mart)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 444 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3 611 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus -1 167 kishi (2021- yilning shu davrida minus -2 333 kishi)ga teng bo'ldi.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

(yanvar-mart oylarida)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Viloyat bo'yicha	3 002	2 444	5 335	3 611	-2 333	-1 167
Samarqand sh.	1 723	1 137	600	636	1 123	501
Kattaqo'rg'on sh.	157	106	214	171	-57	-65
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	74	105	243	159	-169	-54
Bulung'ur	114	90	355	219	-241	-129
Jomboy	117	71	163	131	-46	-60
Ishtixon	146	109	431	287	-285	-178
Kattaqo'rg'on	143	154	423	271	-280	-117
Qo'shrabot	84	70	419	233	-335	-163
Payariq	88	63	522	335	-434	-272
Pastdarg'om	29	172	348	212	-319	-40
Paxtachi	3	12	325	201	-322	-189
Samarqand	71	161	259	139	-188	22
Narpay	74	46	273	171	-199	-125
Nurobod	59	35	203	138	-144	-103
Toyloq	106	106	108	80	-2	26
Urgut	14	7	449	228	-435	-221